

Dolzarb muommalar yechimi olimlar e`tiborida!

O`zbekiston Respublikasining iqtisodiyot sektorini rivojlantirishda qishloq xo`jalagining o`rni yuqori bo`lganligi sababli, ularni suv bilan ta`minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarning yechimida yangi yirik gidrouzellanlarni qurish va ekspluatatsiya qilinayotgan gidrotexnik inshootlarning xavfsiz ishlashini ta`minlash asosiy muhim rol o`ynaydi.

Sardoba suv ombori to`g`oni yorilishi natijasida kelib chiqqan texnogen ofat oqibatida yuz bergan bino va inshootlardagi zararlanishlar hamda buzilishlarni o`rganish maqsadida O`zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti tomonidan Sardoba tumaniga ekspeditsiya uyushtirildi va o`rganishlar natijalari bo`yicha ilmiy loyihalar tayyorlandi.



Tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishning ilmiy yechimini ta`minlashda mavjud ilmiy-innovatsion salohiyatni jalb etish maqsadida olimlarimiz bir necha loyihalarni taqdim etdi:

1. Tabiiy va texnogen halokatlar xavfini kamaytirish vositalari (yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va transport infratuzilmasi inshootlari);
2. Gruntli to`g`onlarning namlanish va seysmik kuchlar ta`siridan mustahkamligining yo`kutilishi va o`pirilishi oldini olishning ilmiy yechimlari;
3. Suv to`g`onlarining ishonchliligini oshirishda teskari filtr qurilmasini qo`llash takliflarini ishlab chiqish.

Shuningdek, Quyosh energiyasi Xalqaro instituti mutaxassislari tomonidan yaratilgan markazlashgan ichimlik suvi ta`minotidan uzoqda joylashgan aholini ichimlik suviga bo`lgan ehtiyojini qondirishga mo`ljallangan "Kunlik chuchuk suv chiqarish quvvati 1 m³ bo`lgan Quyosh suv chuchutish qurilmasini ishlab chiqish, o`rnatish va ishga tushirish" loyihasi ham tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etildi.

Ushbu loyihalar dolzarb muommalarni hal qilishga qaratilgan bo`lib, ekspluatatsiya qilinayotgan va qurilayotgan suv omborlari to`g`onlari, individual uylar va transport inshootlarini xavfsizligini ta`minlash bo`yicha olingan natijalar aniq tavsiyalar va qo`llanmalar ko`rinishida hududlarni qayta tiklash jarayonida foydalanish uchun taqdim etiladi.